

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ERGASHEVA MUHAYYOXON G‘ANIJONOVNA**

**XX ASRNING 20–30-YILLARIDA O‘ZBEKISTON XALQ TA’LIMI  
TIZIMIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Ergasheva Muhayyoxon G‘anijonovna**

XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekiston xalq ta‘limi tizimida xotin-qizlarning ishtiroki..... 3

**Эргашева Мухайёхон Ганижоновна**

Участие женщин в системе народного образования Узбекистана в 20–30-е годы XX века ..... 27

**Ergasheva Muhayyokhon Ganijonovna**

The participation of women in the public education system of Uzbekistan in the 20-30s of the 20<sup>th</sup> century ..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ERGASHEVA MUHAYYOXON G‘ANIJONOVNA**

**XX ASRNING 20–30-YILLARIDA O‘ZBEKISTON XALQ TA’LIMI  
TIZIMIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar739 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rasulov Baxtiyor Mahmudjonovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayev Muzrobjon G‘ulomovich**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Xaydarov Izzatillo Maxmutaliyevich**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahar, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Farg‘ona davlat universiteti tarix fakulteti binosi, 2-qavat, 219-xona. Tel: (99873) 244-44-02; faks (99873) 244-44-93; e-mail: fardu info@umail.uz. Farg‘ona davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100 Farg‘ona shahar, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. ARM bino). Tel: (99873) 244-44-02; faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**B.A.Usmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, t.f.d., professor

**N.O.Alimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, t.f.f.d., dotsent

**M.G.Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,  
dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roli sezilarli darajada ortdi, xotin-qizlarning ijtimoiy maqomi, huquq va erkinliklariga e‘tibor yanada kuchaydi. Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin-qizlar o‘rni va mavqeyini yanada mustahkamlash, ijtimoiy faolligini oshirish, turli sohalarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyatga aylanib bormoqda. Shu o‘rinda, xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish, tizimli hal etish, ayniqsa, ta‘lim olishi imkoniyatlarini yanada kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning qator yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tengligini ta‘minlash, ta‘lim olish imkoniyatlari, uy-joy bilan ta‘minlash kabi masalalar chuqur o‘rganilmoqda. Jumladan, AQShning Kolumbiya universitetida Ayollar va gender tadqiqotlari markazi hamda Ayollar va gender tadqiqotlari instituti, Gender tengligi bo‘yicha Yevropa instituti, Buyuk Britaniya Oksford universitetida Xalqaro gender tadqiqotlari markazi, shuningdek, Rossiya Fanlar akademiyasi Etnologiya va antropologiya instituti Gender tadqiqotlari markazi, Koreya ayollar rivojlanish institutlari xotin-qizlar hamda gender tengligi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda yetakchilik qiladi. Bugungi kunda xotin-qizlar manfaatlarini himoyasi ko‘plab davlatlar siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilishi sohani keng tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shu boisdan, ayollar va ularning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi ishtirokiga doir ilmiy bilimlarni yanada chuqur o‘rganish, tarixiy davrlar, hudud, mintaq va muammolar kesimida tadqiq etish muhim o‘rin tutmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning faolligini oshirish, qo‘llab-quvvatlash, mehnat va o‘qish sharoitlarini yaxshilash, himoya qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraldi. Ayniqsa, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida bu borada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mamlakatda xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlari hamda uy-joy bilan ta‘minlanishi, turmush tarzini yanada yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Zero, Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Xalqimiz azaldan muqaddas Ona zotiga, xotin-qizlarga doimo yuksak ehtirom ko‘rsatib keladi. Ayolga bo‘lgan hurmat-e‘tibor – bu avvalo, oilaga, jamiyat kelajagiga bo‘lgan hurmat-e‘tibor ifodasidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga nisbatan munosabati bilan belgilanadi degan hikmatli so‘zlarda, albatta, chuqur ma‘no bor”<sup>1</sup>. Shuning uchun ham jamiyat hayotida ayollarning ishtiroki masalasining tarixiy ildizlarini tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 21-dekabrdagi

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. 22.06.2019.

PF-208-son “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 7-martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-son “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonda sovet hokimiyatining 1920–1939-yillardagi ta‘lim tizimi va unda xotin-qizlarning ishtiroki masalasiga oid ilmiy adabiyotlarning mafkuraviy mazmuni, nazariy-metodologik jihatlariga ko‘ra uch guruhga ajratgan holda tahlil etish mumkin. Jumladan, birinchi guruh – sovet hokimiyati yillarida yaratilgan asarlardan, ikkinchi guruh – O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida olib borilgan tadqiqot natijalaridan iborat. Uchinchi guruhni esa xorij davlatlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar tashkil qiladi.

Ilmiy adabiyotlarning salmoqli qismi birinchi guruh adabiyotlari hisoblanadi. Sovet hokimiyati yillarida yaratilgan asarlar ayollarning savodsizlikni tugatish jarayonlariga tortilishi va ularning sotsialistik jamiyat qurilishida ishtiroki masalasini yorituvchi dastlabki muhim nazariy materiallar taniqli partiya va sovet arboblari M.Kalinin, S.Kirov, N.Krupskaya, A.Lunacharskiy, A.Kollontay va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan<sup>2</sup>.

XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida yangicha tarixiy tafakkur, yondashuv va metodologiya asosida ijtimoiy fanlarning deyarli hamma tarmoqlarida ayollar ahvolini o‘rganishga e‘tibor qaratilib, xotin-qizlar masalasiga oid bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi<sup>3</sup>. Ular

---

<sup>2</sup> Луначарский А., Крупская Н. Народное образование и женщина-общественница. – Москва: Госиздат, 1928. – 78 с.; Крупская Н.К. Заветы Ленина о раскрепощении женщины. – Москва, 1933. – 88 с.; Унинг о‘зи. О женском профессиональном образовании. Том 2. – Москва, 1978. – 278 с.; Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924). – Москва, 1960. – 512 с.; Калинин М.И. О коммунистическом воспитании. – Москва, 1968. – 171 с.; Киров С.М. О народном воспитании и просвещении. – Москва, 1969. – 199 с.; Коллонтай М. Избранные статьи и речи. – Москва, 1972. – 432 с.; Луначарский А.В. О воспитании и образовании. – Москва: Педагогика, 1976. – 631 с.; Куманев В.А. Ленинский комсомол в борьбе за всеобщую грамотность в СССР. – Москва, 1960. – 64 с.; Луначарский А. О народном образовании. – Москва: Изд. Академии пед.наук РСФСР, 1961. – 380 с.; Ремизова Т.А. Культурно-просветительная работа в РСФСР (1921-1925 гг.) – Москва: Изд. АН СССР, 1962. – 260 с.

<sup>3</sup> Эргашходжаева Г.Э. Французская историография о проблемах эмансипации женщин Средней Азии в 20-е годы (Литература 50-80-х годов). Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1996. – 22 с.; Нишонбоева Қ.В. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари. Тарих фанлари бўйича (Бу йилларда PhD бўлмаган) дисс. – Тошкент, 1998. – 166 б.; Холматова М. Оилавий муносабатлар маданиятини такомиллаштириш ва соғлом авлодни тарбиялаш муаммолари. Фалсафа. фан. докт...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 53 б.; Насруллаева Х. Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоийлашуви жараёнининг фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари номзоди дисс. автореферати. – Тошкент, 2000. – 26 с.; Маткаримова Г.А. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве. Автореф.дисс.д-

adabiyotlarning ikkinchi guruhini tashkil etadi.

Muammo tarixshunosligida uchinchi guruh adabiyotlarini xorij tadqiqotlari tashkil etadi. Sovetlar mamlakatidagi xotin-qizlar masalasi bo'yicha xorij tarixshunosligida ham salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, xotin-qizlar masalasi R.Stayts, A.Xaytlinger, M.Bakli, A.Xolt, R.Mak Nil kabi xorij tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan<sup>4</sup>.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatadiki, respublika va xorijda amalga oshirilgan tadqiqot ishlari XX asrning 20–30-yillari davriy chegarasida O'zbekiston tarixidagi xotin-qizlar savodsizligini tugatish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning birinchi bob, birinchi paragrafida muammoning tarixshunoslik masalasi batafsil tahlil etilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ta'lim tizimi tarixi: tarixiylik va innovatsiya" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** XX asrning 20–30-yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi tizimining ahvoli va unda xotin-qizlarning ishtiroki masalasini birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Turkiston ASSR hamda O'zbekiston SSRda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ta'lim sohasining ahvoli va undagi o'zgarishlar oqibatida yuzaga kelgan muammo va ularning yechimi usullarini o'rganish;

tadqiq qilinayotgan davrda O'zbekiston SSR xalq ta'limi tizimida xotin-qizlarning ishtiroki va boshqa ijtimoiy-siyosiy sohalarda ayollar salmog'ining ortishi dinamikasini tahlil etish;

xotin-qizlar savodsizligini tugatishdagi tizimli tadbirlar (ta'lim haftalıkları, ayollar klublaridagi savodsizlik kurslari)ning transformatsiya jarayonlariga ta'sirini ko'rsatib berish;

XX asrning 20-yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan "Madaniy inqilob" va unda xotin-qizlarning ishtiroki masalasi mohiyatini ochib berish;

O'zbekiston SSR ta'lim muassasalarida ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ayol pedagog kadrlar bilan ta'minlash uchun xotin-qizlar bilim yurtlarining tashkil etilishi va ularning ko'rsatkichlarini aniqlash;

ta'lim muassasalarida ayol o'qituvchilar sonining ortib borishi tendensiyalari sabab va omillarini yoritish;

---

ра юрид. наук. – Ташкент, 2002. – 41 с.; Ражабова Д.Н. Проблемы молодёжи и женщин в воззрениях джадидов Туркестана (конец XIX-начало XX вв). Автореф.дис...к.и.н. – Ташкент, 2003. – 27 с.

<sup>4</sup> Stites R. The Women's Liberation Movement in Russia Feminism, Nihilism and Bolshevism 1860-1930 Princeton, N.J. 1978. – 512 p.; Heitlinger A. Marxism, Feminism and Sex Equality Yedlin T. (ed) Women in Eastern Europe and the Soviet Union. N Y. 1980. – P. 9-21.; Holt A. Marxism and Women's Oppression Bolshevik Theory and Practice in the 1920s'; Holt A. Marxism and Women's Oppression Bolshevik Theory and Practice in the 1920s' Yedlin T (ed) Women in Eastern Europe and the Soviet Union. N. Y., 1980. – P. 87-104.; McNeal R.H. The Early Decrees of Zhenotdel Yedlin T (ed) Woomen Eastern Europe and the Soviet Union. N Y., 1980. – P. 75-86.; McNeal R.H. The Early Decrees of Zhenotdel Yedlin T (ed) Woomen Eastern Europe and the Soviet Union. N Y., 1980. – P. 75-86.; Buckley M. Woomen and Ideology in the Soviet Union Ann Arbor, N Y.; L; Toronto, 1989. – 266 p.

tashkil etilgan ta'lim muassasalariga tatbiq etilgan o'quv rejalar va kurslar uchun o'qitilishi zarur bo'lgan fanlarni rejalashtirish asoslarini tahlil qilish;

Tadqiqot natijalari asosida yakuniy xulosalar chiqarish hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida XX asrning 20–30-yillarida O'zbekiston xalq ta'limi tizimida xotin-qizlarning faoliyati belgilandi.

**Tadqiqotning predmetini** jamiyatda savodli va ziyoli ayollar sonining ortib borishiga ta'sir ko'rsatgan siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit va omillar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik tamoyili, muammoli-xronologik, miqdoriy, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

XX asr birinchi choragida Turkiston o'lka xalqlari uchun tamoman yangi bo'lgan ta'lim tizimining joriy etilishi va "Hujum" harakati asosidagi "ayollar kooperatsiyasi" va "xotin-qizlar emansipatsiyasi"dan sovet hokimiyati ishchilar sinfi tarkibida ayollar salmog'ini oshirish maqsadida foydalanganligi ochib berilgan;

O'zbekiston SSRda bolsheviklar hokimiyati tomonidan savodsizlikni tugatish siyosatining joriy etilishi natijasida o'zbek ayollari o'rtasida savodlilar soni ko'paygani, 1926–1937-yillarda respublikaning 16 - 49 yoshli xotin-qizlar o'rtasida savodlilar soni 102 748 nafarga ortgani va ushbu ko'rsatkich 60 foizni tashkil etgani aniqlangan;

XX asr 20–30-yillarida respublikada xotin-qizlar o'rtasidagi savodsizlik darajasi erkaklarga nisbatan ancha past bo'lgani sababli, aynan ayollar uchun pedagogika bilim yurtlarining tashkil etilishi hamda mahalliy ayol o'qituvchilar tayyorlashning ortib borgani savodsizlik darajasining kamayishiga ta'sir ko'rsatgani asoslangan. Mahalliy tillarda ta'lim beruvchi ayol o'qituvchilarning yetishmasligi oqibatida boshqa millat (rus, tatar, tojik) vakillarini o'qituvchilik uchun safarbar etilishi orqali faoliyat samaradorligi ortgani isbotlangan;

XX asrning 20–30-yillarida O'zbekiston tarixida tamoman yangi hisoblangan xalq ta'limi tizimida pedagog kadrlar uchun o'quv kurs rejaları (420 soat), belgilangan savodsizlik kurslari rejaları (3 oyga mo'ljallangan 317 soat, 4 oyga mo'ljallangan 364 soat) hamda ta'lim haftaliklarining belgilangan dars mavzulari o'rganilib, o'quv soatlarining 30 foizi siyosiy o'qish mavzulariga ajratilganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** O'zbekistonda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida sovet ta'lim tizimining qaror topishi va unda xotin-qizlarning ishtirokini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan keng qamrovli siyosiy-mafkuraviy tadbirlar, bu borada bolsheviklar tomonidan yo'l qo'yilgan qo'pol xatolar, mahalliy urf-odatlarining poymol etilishi kabi holatlarni o'rganish, tahlil qilish natijasida bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonning shahar va qishloqlarida yangi ko'rinishdagi sovet maktablarining barpo etilishi va ularga mahalliy xotin-qizlarning jalb etilishi jarayonlarini arxiv hujjatlari, ilmiy-tarixiy adabiyotlar orqali tahlil etish asosida XX asrning 20–30-yillarida butun O'zbekistondagi ta'lim tizimi tarixini yorituvchi



ko'pgina yangi ma'lumotlar ilmiy iste'molga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Andijon, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Samarqand viloyat davlat arxivlari fondlarida saqlanayotgan hujjatlarga asoslangani, dissertatsiya ma'lumotlari amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati unda keltirilgan ko'plab yangi ma'lumotlar Turkiston ASSR, keyinchalik O'zbekiston SSR xalq ta'limi tizimidagi sovetlar tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlarni har tomonlama tahliliy o'rganishga xizmat qilishi va ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jamlangan ilmiy ma'lumotlarning O'zbekiston tarixining tegishli davrini tizimli o'rganish, bu davr tarixini to'laqonli yorituvchi darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XX asrning 20–30-yillarida O'zbekiston xalq ta'limi tizimida xotin-qizlar ishtiroki masalasini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

XX asr birinchi choragida Turkiston o'lka xalqlari uchun tamoman yangi bo'lgan ta'lim tizimining joriy etilishi va "Hujum" harakati asosidagi "ayollar kooperatsiyasi" va "xotin-qizlar emansipatsiyasi"dan sovet hokimiyati ishchilar sinfi tarkibida ayollar salmog'ini oshirish maqsadida foydalanganligiga oid ilmiy-tarixiy ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali "Taqdimot" ko'rsatuvlari ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 12-iyuldagi 02-31-1082-son ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar ko'rsatuvni mazmunan boyitishga va teletomoshabinlarning xalq ta'limi tizimiga oid bilim va tasavvurlarini yanada boyitishiga xizmat qilgan;

O'zbekiston SSRda bolsheviklar hokimiyati tomonidan savodsizlikni tugatish siyosatining joriy etilishi natijasida o'zbek ayollari o'rtasida savodlilar soni ko'paygani, 1926-1937-yillarda respublikaning 16-49 yoshli xotin-qizlar o'rtasida savodlilar soni 102 748 nafarga ortgani va ushbu ko'rsatkich 60 foizni tashkil etganiga doir ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali ko'rsatuvlari ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 20-fevraldagi 02-31-271-son ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan ma'lumotlar ko'rsatuvlarni mazmunan boyitishga, teletomoshabinlarning sovet hokimiyati dastlabki davrida xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoli va ilk sovet maktablarining faoliyati haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishlariga xizmat qilgan;

XX asr 20 – 30-yillarida respublikada xotin-qizlar o'rtasidagi savodsizlik darajasi erkaklarga nisbatan ancha past bo'lgani sababli, aynan ayollar uchun pedagogika bilim yurtlarining tashkil etilishi hamda mahalliy ayol o'qituvchilar

tayyorlashning ortib borgani natijada savodsizlik darajasining kamayishiga ta'sir ko'rsatganiga doir materiallardan Andijon viloyati tarix va madaniyat muzeti "Tarix bo'limi" zalini boyitishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligining 2023-yil 18-iyul sanasidagi 04-06/2472-son ma'lumotnomasi). Natijada, Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyiga tashrif buyuruvchilarning O'zbekiston tarixiga doir bilim va tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qilgan;

XX asrning 20 – 30-yillarida O'zbekiston tarixida tamoman yangi hisoblangan xalq ta'limi tizimida pedagog kadrlar uchun o'quv kurs rejalari (420 soat), belgilangan savodsizlik kurslari rejalari (3 oyga mo'ljallangan 317 soat, 4 oyga mo'ljallangan 364 soat) hamda ta'lim haftaliklarining belgilangan dars mavzulari o'rganilib, o'quv soatlarining 30 foizi siyosiy o'qish mavzulariga ajratilganligiga oid ma'lumotlardan Andijon viloyati tarix va madaniyat muzeyi "Tarix bo'limi" zalini boyitishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligining 2023-yil 18-iyul sanasidagi 04-06/2472-son ma'lumotnomasi). Natijada, Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyiga tashrif buyuruvchilarning XX asrning 20 – 30-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga doir bilim va tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qilgan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 8 ta ilmiy-amaliy konferensiyalar, jumladan 6 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (ulardan 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallar) e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 136 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mavzuga doir manbalar tahlili va muammo tarixshunosligi**" deb nomlangan. Ushbu bobda tadqiqotni tayyorlashga asos bo'lgan manbalar tahlil etilib, muammoning tarixshunosligi o'rganilgan. Tadqiqotning manbalar bazasi ancha keng bo'lib, ular to'rtta – arxiv hujjatlari, hujjat va materiallar to'plamlari, davriy matbuot, og'zaki tarix materiallari hamda xotira va esdaliklar guruhlariga bo'lingan.

Birinchi guruhga O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi va Andijon, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Samarqand viloyat davlat arxivlari fondlarida saqlanayotgan

mavzuga oid materiallar kirgan. Milliy arxiv fondlaridagi hukumat qarorlari, Xalq maorifi komissarligining ta'limni rivojlantirishga doir chora-tadbirlari hukmron sovet hokimiyatining ta'lim tizimining qaror topishi va ommalashuvi haqida ma'lumot beradi. Xususan, O'zbekiston Milliy arxivining R-34-fondi (Turkiston ASSR Maorif Xalq komissarligi) hujjatlari bu borada juda muhim manbalar sanaladi<sup>5</sup>.

Mavzuning manbalar bazasida O'zbekiston Milliy arxivining R-94-fondi (O'zSSR Maorif Xalq komissarligi) materiallari salmoqli o'rin tutadi. Bu fond xalq ta'limi masalalarining tadqiqot davriy chegaralariga oid ma'lumotlar bilan boyitish uchun asosli hujjatlar to'plami hisoblanadi<sup>6</sup>.

Milliy arxivning R-86-fondi (O'zSSR MIK) hujjatlari orasida xalq maorifi masalalariga oid ma'lumotlar muhim o'rin egallagan. Unda respublikada sovet ta'lim tizimining shakllanishi, maktablarni tashkil etishga doir qarorlar, ko'rsatma va yo'riqnomalar, ushbu masalalar ijrosi yuzasidan joylardan kelgan hisobotlar mavjud bo'lib, ular o'rganilayotgan mavzuni yoritib berishda muhim ahamiyatga ega sanaladi<sup>7</sup>.

Mavzuni yoritishda Farg'ona viloyat davlat arxivining 131-fond (Farg'ona viloyat xalq ta'limi bo'limi) hujjatlar to'plami xalq ta'limi masalasiga oid turli qarorlar, markazdan kelgan topshiriqlar va ularning ijrosi yuzasidan berilgan hisobot ma'lumotlaridan iborat<sup>8</sup>. Mazkur arxivning 83-fond (Farg'ona viloyat ijroiya komiteti) hujjatlari ham xalq ta'limi bo'limlari faoliyatiga tegishli hisoblanib, jamlangan ma'lumotlar turli ko'rinishdagi jadvallar asosida ham aks etgan<sup>9</sup>. Ushbu fondagi 1921–1938-yillarga oid xalq ta'limi xodimlarining ilmiy-pedagogik faoliyatiga tegishli qimmatli materiallardan ushbu dissertatsiyada keng foydalanildi.

Mavzuga oid manbalarga boyligi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Farg'ona hududiy bo'limi fondlari alohida ahamiyatga ega sanaladi. Mazkur arxivning tegishli fondlaridan ushbu tadqiqotda keng foydalanildi. Ushbu arxiv materiallaridan 1924-yilda O'zbekiston SSRning Farg'ona oblasti tarkibida bo'lgan Andijon va Namangan hududlariga tegishli umumiy hujjatlar yig'ma jildidagi "Ayollar bo'limi" deb nomlangan ma'lumotlar orasida xotin-qizlar bo'limlari faoliyati yoritilgan. Ayni ma'lumotlar ham alohida ahamiyatga ega<sup>10</sup>. Bu hujjatlarda Andijon va Namangan viloyatlari shahar va qishloqlarida tashkil etilgan xotin-qizlar maktablari va ularning faoliyati atroflicha tahlil etilgan. Muhim jihati – ushbu materiallar orasida sovet tipidagi maktablarga xotin-qizlarning jalb etilishi, ular o'rtasidagi savodsizlikni tugatish bo'yicha olib borilgan ishlarga oid muhim materiallar o'rin olgan. Xususan, bu arxivning 1-fond (O'zKP(b) Farg'ona oblast komiteti) hujjatlarida viloyatda tashkil etilgan

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Milliy arxivi, R-34-fond, 1-ro'yxat materiallari.

<sup>6</sup> O'zbekiston Milliy arxivi, R-94-fond, 1-ro'yxat materiallari.

<sup>7</sup> O'zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond materiallari.

<sup>8</sup> Farg'ona viloyat davlat arxivi, 131-fond, 1-ro'yxat yig'majildlari.

<sup>9</sup> Farg'ona viloyat davlat arxivi, 83-fond materiallari.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg'ona viloyat bo'limi, 13-fond, 1-ro'yxat, 78, 79, 84-yig'majildlar.

kolxozlar, artellar qoshida ayollar uchun kurslar tashkil etilishi, ularga qatnagan xotin-qizlar soni qayd etilgan. Xotin-qizlarga ish vaqtlarini chegirgan holda, qo‘shimcha ish haqi to‘langaniga doir ma‘lumotlar o‘rin olgan<sup>11</sup>.

Ushbu fondan o‘rin olgan hujjatlarda Farg‘ona vodiysi hududlarida xotin-qizlarni savodli qilish asosida ularni partiya-sovet tadbirlariga keng jalb etish borasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalarini ham ko‘rsatib berilgan. Xususan, vodiyning shahar va qishloqlarida xotin-qizlar klublarining tashkil etilishi va faoliyati, turli kasbga yo‘naltirilgan to‘garaklar bo‘yicha qimmatli materiallar mavjud.

Namangan viloyat davlat arxivining 12-fondi (Xalq ta‘limi) hududda dastlabki maktablarning ochilishi bo‘yicha qarorlar, ularning faoliyati, yillik hisobotlari va ilmiy-pedagogik jarayonlarini yorituvchi materiallardan iborat. Shuningdek, hududda ochilgan ilk maktablarda xotin-qizlarning ishtiroki keng talqin qilingan. Ma‘lumotlar va tegishli jadvallardan tadqiqotning ilmiy asoslari yoritishda keng foydalanildi<sup>12</sup>.

Andijon viloyat davlat arxivining 129-fondi (Xalq ta‘limi) hujjatlari viloyatdagi xalq ta‘limi sohasining dastlabki faoliyatini ochib berishda muhim o‘rin tutadi<sup>13</sup>. Arxivning 505-fondi (Ayollar bo‘limi) yig‘ma jildlaridagi viloyat hududlaridagi ayollar maktablarining faoliyati, ularning yillik statistik ma‘lumotlari chuqur o‘rganilib, ushbu dissertatsiyada keng foydalanildi<sup>14</sup>. Andijon viloyat davlat arxivining 83-fondi ma‘lumotlari o‘rganilayotgan mavzuning turli jihatlarini ochib berish va umumlashtirishda ko‘mak berdi. Ushbu fond Andijon okrug ijroiya komitetining 1926-1930-yillarga tegishli hujjatlaridan iborat. Uning tarkibida Andijonning shahar va qishloqlaridagi sovet maktablari soni, o‘qiyotgan o‘quvchilar soni hamda ularning turli o‘quv yillarida ortib borish dinamikasiga doir jadvallar ham o‘rin olgan<sup>15</sup>.

Tadqiqot olib borilayotgan davrning xalq ta‘limi islohotlarining amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha qiyosiy tahlillar olib borish uchun Samarqand viloyat davlat arxivining 152-fond (Samarqand oblast Kattaqo‘rg‘on rayoni savodsizlikni tugatish ishlari hisobotlari) hujjatlaridan foydalanildi<sup>16</sup>. Ayni xalq ta‘limi sohasi uchun muhim hisoblangan kadrlar tayyorlash jarayoni va undagi muammolar aks etgan 1926-yil 25-dekabrda 1928-yil 27-dekabr gacha bo‘lgan muhim hisobotlari aks etgan materiallardan foydalanildi. Shuningdek, 519-fond yig‘ma jildlardan hujjatlaridan, jumladan 1930-yil 17-fevral gacha bo‘lgan Samarqand oblastidagi savodsizlar bilan ishlash natijalariga doir statistik ma‘lumotlar o‘rganilib, tahlili ishda aks etdi<sup>17</sup>. Ayniqsa, ushbu fondda Samarqandda tashkil etilgan pedagogika bilim yurtlari va unda tahsil olgan xotin-qizlar soniga doir ma‘lumotlar muhim

---

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg‘ona viloyat bo‘limi, 1-fond, 1-ro‘yxat materiallari.

<sup>12</sup> Namangan viloyat davlat arxivi, 12-fond, 1-ro‘yxat materiallari.

<sup>13</sup> Andijon viloyat davlat arxivi, 129-fond, 1-ro‘yxat materiallari.

<sup>14</sup> Andijon viloyat davlat arxivi, 505-fond, 1-ro‘yxat materiallari.

<sup>15</sup> Andijon viloyat davlat arxivi, 83-fond, 1-ro‘yxat materiallari.

<sup>16</sup> Samarqand viloyat davlat arxivi, 152-fond, 1-ro‘yxat materiallari.

<sup>17</sup> Samarqand viloyat davlat arxivi, 519-fond, 1-ro‘yxat materiallari.

ahamiyat kasb etdi. Ushbu fondan xotin-qizlarning umumta'lim maktablari va boshqa madaniy-oqartuv bilim yurtlari ta'lim tizimiga tortilishiga doir qiziqarli ma'lumotlar olindi va ilmiy muomalaga kiritildi.

Buxoro viloyat davlat arxivining 546-fondi (Buxoro oblast Xalq ta'limi bo'limi) yig'ma jildlari ham o'rganilib, mavzuga oid bir qator ma'lumotlar ilmiy iste'molga kiritildi. Buxoro viloyati hududlarida 1924–1933-yillarda ta'lim sohasining umumiy ahvoli, okrugda savodsizlikni tugatish kompaniyasining tashkil etilishiga doir materiallar olindi. Shu o'rinda, savodsizlikni tugatish kurslari faoliyati, turli darajadagi maktablar tashkil etilishi va bu jarayonga mahalliy aholi tomonidan qanday munosabat bildirilganiga doir tahliliy materiallardan ham ushbu dissertatsiyaning tegishli boblarida keng foydalanildi<sup>18</sup>.

O'zbekiston Respublikasining alohida viloyatlari arxivlari hujjatlari Respublika markaziy arxivi ma'lumotlarini to'ldiruvchi, muayyan viloyatga xos bo'lgan jarayonlarni batafsil yoritib berishi nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi. Ularda joylardagi sovet maktablari qurilishi jarayonlari, ularning miqdori, o'sish dinamikasi, jalb qilingan o'quvchilar soni, viloyat shahar va qishloqlarida xotin-qizlarni ta'lim tizimiga tortilishi kabi hududga xos xususiyatlari to'liq aks etadi.

Manbalar bazasining ikkinchi guruhini Turkiston ASSR va keyinchalik O'zbekiston SSRning 1920–1939-yillardagi xalq ta'limi tizimining umumiy holatini aks ettiruvchi hujjat va materiallar to'plami<sup>19</sup> va statistik ma'lumotnomalar<sup>20</sup> tashkil etadi. Bu manbalar guruhining o'ziga xos tomoni shundaki, ularda aynan ta'lim masalalariga doir ma'lumotlar o'rin olgan. Statistik to'plamlarda esa, ko'rib o'tilgan yillarda O'zbekiston hududlarida tashkil etilgan sovet maktablari va ularning yillar kesimidagi ortib borish dinamikasi, o'quvchilar soni, milliy, gender tarkibiga doir raqamlar yillar kesimida aks etgan.

Manbalarning uchinchi guruhini davriy matbuot materiallari tashkil etadi. Tadqiqotni tayyorlash jarayonida Turkiston ASSR va keyinchalik O'zbekiston SSRda 1920–1930-yillarda nashr etilgan “Наша газета”, “Известия”, “Туркестанская правда”, “Правда Востока”, “Қизил Ўзбекистон”, “Шарқ ҳақиқати”, “Комсомол Востока” gazetalari hamda “За партию”, “Революция и национальность”, “Маориф va o'qituvchi” jurnallarida e'lon qilingan mavzuga doir materiallar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Manbalarning to'rtinchi guruhini XX asrning 20–30-yillarida O'zbekiston SSRning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida faol ishtirok etgan shaxslarning og'zaki tarix materiallari hamda respublikada amalga oshirilgan maorif sohasidagi islohotlarda bevosita qatnashgan ijtimoiy-siyosiy arboblarning xotira va esdaliklari

---

<sup>18</sup> Buxoro viloyat davlat arxivi, 546-fond, 1-ro'xat materiallari.

<sup>19</sup> Собрание узаконений УзССР. – Самарканд, 1927.–78 с.; Директивы ВКП(б) и постановления Советского правительства о народном образовании за 1917–1947. Вып.2. – Москва-Ленинград, 1947. – 32 с.; Декреты Советской власти. Том 1. – Москва: Госполитиздат, 1959. – 58 с.; КПСС о культуре, просвещении и науке. – Москва: Госполитиздат, 1963. – 548 с.; КПСС и Советское правительство об Узбекистане (1925–1970). – Ташкент: Узбекистан, 1972. – 72 с.

<sup>20</sup> Культурное строительство СССР. – Москва – Ленинград: Госполитиздат, 1940. – 934 с.; Народное образование в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1947. – 64 с.; Муратходжаева А. Народное образование в УзССР за 25 лет (1924–1949). – Ташкент: Госиздат УзССР, 1949. – 122 с.; Народное образование в Узбекской ССР за 30 лет (1924–1954). – Ташкент: Госиздат УзССР, 1954. – 78 с.

tashkil qiladi. Bunday esdaliklardan eng muhimlari sifatida T.N.Qori-Niyoziy, J.Obidova, N.Mukarramov, D.Tojiyeva, N.Rahmatovlarning O‘zbekiston xalq ta’lim tizimining qaror topishi va unda kechgan jarayonlar masalalari aks etgan materiallarini ko‘rsatib o‘tish mumkin<sup>21</sup>.

Umuman, o‘rganilgan mavzuning manbalar bazasi juda keng bo‘lib, ular o‘sha davr ruhini, kechgan jarayonlarni ochib berishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Manbalarning barcha guruhiga tegishli bo‘lgan umumiy xususiyat mavdud, jumladan ularda asosan, sovet hokimiyati va mafkurasi ta’siri ustuvorlik qiladi. Ularning shakllanishiga sovet hokimiyati mafkurasining ta’siri sababli kechayotgan jarayonlarga tanqidiy baho beruvchi hujjatli materiallar deyarli uchramaydi.

O‘zbekistonda sovet hokimiyatining 1920–1939-yillardagi ta’lim tizimi va unda xotin-qizlarning ishtiroki masalasiga oid ilmiy adabiyotlarning mafkuraviy mazmuni va nazariy-metodologik jihatlariga ko‘ra uch guruhga ajratgan holda tahlil etish mumkin. Jumladan, birinchi guruh – sovet hokimiyati yillarida yaratilgan asarlardan, ikkinchi guruh – O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida yaratilgan tadqiqotlardan iborat. Uchinchi guruhni esa xorij davlatlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar tashkil qiladi.

Ilmiy adabiyotlarning salmoqli qismi birinchi guruh adabiyotlari hisoblanadi. Sovet hokimiyati yillarida yaratilgan asarlar ayollarning savodsizlikni tugatish jarayonlariga tortilishi va ularning sotsialistik jamiyat qurilishida ishtiroki masalasini yorituvchi dastlabki muhim nazariy materiallar taniqli partiya va sovet arboblari M.Kalinin, S.Kirov, N.Krupskaya, A.Lunacharskiy, A.Kollontay va boshqalarning ishlarida<sup>22</sup> o‘z aksini topgan. Ayni paytda, sovet davlatida xotin-qizlar masalasi tarixi jamiyatshunoslar tomonidan ham o‘rganilgan<sup>23</sup>. Ularning asarlarida butun mamlakatdagi sovet-partiya tashkilotlarining ayollar o‘rtasida olib borgan ishlarining shakl va usullari tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda maorif qurilishi masalasiga bag‘ishlangan dastlabki nazariy qarashlar A.Ikromov, F.Xo‘jayev, Y.Oxunboboyev, I.Zelenskiy kabi davlat va jamoat arboblarning davriy matbuot sahifalarida e’lon qilingan maqolalarida<sup>24</sup>

---

<sup>21</sup> Тожиева Д. Хотин-қизлар зиёси. – Тошкент: Учпедгиз, 1949. – 168 с.; Обидова Ж. Халқ таълими йўлида. – Тошкент: Госиздат, 1954. – 67 б.; Рахматов Н. Ўзбекистонда маориф тизими ривож. – Тошкент: Фан, 1962. – 36 б.; Қори-Ниезий Т.Н. Ҳаёт мактаби (Эсдалик лавҳалари). Қўшимчалари билан қайта ишланган 2-нашри. – Тошкент: Фан, 1966. – 232 б.

<sup>22</sup> Луначарский А., Крупская Н. Народное образование и женщина-общественница. – Москва: Госиздат, 1928. – 78 с.; Крупская Н.К. Заветы Ленина о раскрепощении женщины. – Москва, 1933. – 88 с.; О‘sha muallif. Женщина в стране социализма. – Москва, 1938. – 168 с.; О‘sha muallif. О женском профессиональном образовании. Том 2. – Москва, 1978. – 278 с.; Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924). – Москва, 1960. – 512 с.; Калинин М.И. О коммунистическом воспитании. – Москва, 1968. – 171 с.; Киров С.М. О народном воспитании и просвещении. – Москва, 1969. – 199 с.; Коллонтай А.М. Избранные статьи и речи. – Москва, 1972. – 432 с.; Луначарский А.В. О воспитании и образовании. – Москва: Педагогика, 1976. – 631 с.

<sup>23</sup> Билыпай Б.В. Развитие женского вопроса в СССР. – Москва, 1956. – 64 с.; Овчинников И.Ф. Советские женщины – активные строители коммунизма. – Ленинград, 1969. – 86 с.; Емельянова Е.Д. Революция, партия, женщина. – Смоленск, 1971. – 24 с.; Женщины страны Советов. Краткий исторический очерк (1917–1937 гг.) – Москва, 1978. – 28 с.

<sup>24</sup> Икрамов А. О задачах культурной революции // «Правда Востока», 1925-года 12-май. 1-с.; Ходжаев Ф. 10 лет борьбы и строительства. – Самарканд, 1928. – 49 б.; Зеленский И.А. В борьбе за культуру // «За партию».

atroflicha yoritilgan. Ushbu maqolalarda O‘zbekistondagi sovet tuzumining mohiyati, davlatining ta’lim sohasida amalga oshirayotgan siyosati mazmuni kabi nazariy jihatlar bayon etilgan.

XX asrning 30–40-yillaridan e’tiboran, O‘zbekistondagi maorif va madaniy qurilish masalalari tarixshunoslik jihatidan ham tahlil etilib, bu mavzu bo‘yicha bir qator kitob va to‘plamlar nashr etildi<sup>25</sup>. Ushbu asarlarda O‘zbekistondagi “sotsialistik madaniyat” qurilishi va uning respublikadagi o‘ziga xos jihatlari o‘n yilliklar misolida tarixshunoslik nuqtayi nazaridan bayon etilgan.

XX asrning 60–70-yillarida butun Sovet ittifoqi miqyosida, shuningdek, O‘zbekistonda maorif, madaniyat qurilishi va rivojlanishi masalalariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy asarlar yaratildi<sup>26</sup>. Ushbu asarlar manbaviy jihatdan juda keng asosga ega bo‘lib, ularda butun mamlakatdagi madaniy qurilish, savodsizlikni tugatish masalalari nazariy jihatdan asoslangan. Ularda milliy respubliklardagi, jumladan, O‘zbekistondagi maktab tizimi va xotin-qizlarning maorif rivojidagi ishtiroki masalalariga ham keng e’tibor berilgan.

O‘zbekistondagi xotin-qizlarning “sotsialistik qurilish”dagi ishtiroki, xususan ularning maktablar, pedagogika bilim yurtlariga tortilishi, turli partiya-sovet idoralaridagi ishlarga jalb etilishi masalasi, bu borada amalga oshirgan keng qamrovli tadbirlari X.S.Shukurova, M.G‘afforova, R.A.Nabiyeva, R.X.Aminova va boshqalarning asarlarida<sup>27</sup> har tomonlama va chuqur o‘rganilgan. O‘zbekistondagi xalq ta’limi tizimi tarixini o‘rganishda tarixchi olimlar E.Qodirov, N.Rahmonov, F.Sharipovlarning xizmatlarini alohida qayd etish zarur. Ularning asarlarida O‘zbekistonda 1920–1939-yillarda yangi tipdagi sovet maktablarining

---

1928. №3. 5 с.; Ахунбабаев Й. Культурные достижения Узбекистана // «Революция и национальность». 1932. №1. – 3 с.

<sup>25</sup> Жургунов Т. Строительство социализма и культурная революция в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат, 1932. – 26 с.; Штерн И. Социалистическая культура узбекского народа. – Ташкент: Госиздат, 1938. – 144 б.; Народное образование в Узбекистане. – Ташкент: Объединенное изд. «Правда Востока» и «Кизил Ўзбекистон», 1947. – 64 с. Муратходжаева А. Народное образование в Узбекской ССР за 25 лет (1924–1949). – Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1949. – 122 с.; Қодиров И.К. Народное образование Узбекской ССР за 30 лет (1924–1954). – Ташкент: Учпедгиз, 1954. – 144 с.; Қори Ниёзов Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Тошкент: Уздавнашр, 1957. – 407 б.; Раджабов С. Из истории строительства советской школы в Узбекистане. – Ташкент: Учпедгиз, 1957. – 127 б.

<sup>26</sup> Куманев В.А. Ленинский комсомол в борьбе за всеобщую грамотность в СССР. – Москва, 1960. – 64 с.; Луначарский И. О народном образовании. – Москва: Изд. Академии пед.наук РСФСР, 1961. – 380 с.; O‘sha muallif. Социализм и всенародная грамотность. Ликвидация массовой неграмотности в СССР. – Москва: Наука, 1967. – 328 с.; Королёв Ф.Ф., Корнейчик Т.Д., Равкин З.И. Очерки по истории Советской школы и педагогики 1921–1931. – Москва: Изд. Академии пед.наук РСФСР, 1961. – 512 с.; Ремизова Т.А. Культурно-просветительная работа в РСФСР (1921–1925 гг.) – Москва: Изд. АН СССР, 1962. – 260 с.; Иноятов Н.Ш. Борьба Коммунистической партии за подготовку и воспитание учительских кадров в Узбекистане (1921–1925 гг.). – Ташкент: Наука, 1965. – 134 с.; Голант Е.Я. 50 лет Советской школы. – Ленинград, 1967. – 52 с.; Кабанов П.И. История культурной революции в СССР (Краткий очерк). – Москва: Высшая школа, 1971. – 294 с.; Исаев Х. Из истории организационно-массовой работы на селе в Узбекистане (1925–1932 гг.) – Ташкент: Фан, 1975. – 120 с.

<sup>27</sup> Шукурова Х.С. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за раскрепощение женщин. – Ташкент: Фан, 1961. – 149 б.; Иноятов Н.Ш. Борьба коммунистической партии за подготовку и воспитание учительских кадров в Узбекистане (1921–1925). – Ташкент, 1965. – 134 с.; Гаффарова М. Социализм и женщина Узбекистана. – Ташкент, 1970. – 40 с.; Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – Ташкент, 1975. – 353 б.

tashkil topishi jarayonlari tarixi keng turdagi manbalar bazasiga asoslangan holda tahlil etilgan<sup>28</sup>.

Mavzuga tegishli adabiyotlarning ikkinchi guruhiga O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida yaratilgan asarlar kiradi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasini tarixchi olimlardan R.X.Aminova, D.A.Alimova bugungi kun nuqtayi nazaridan tadqiq etdilar<sup>29</sup>. XX asrning 90-yillarining ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida yangicha yondashuv va metodologiya asosida ijtimoiy fanlarning hamma tarmoqlarida ayollar ahvolini o‘rganishga e’tibor qaratildi. Hamda, xotin-qizlar masalasiga oid bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi<sup>30</sup>. Ushbu dissertatsiyalarda sovet hokimiyatining xotin-qizlarga munosabatining mustamlakachilik mohiyati xolis yoritib berilgan.

Muammo tarixshunosligida uchinchi guruh adabiyotlarini xorij tadqiqotlari tashkil etadi. Sovet mamlakatidagi xotin-qizlar masalasi bo‘yicha xorij tarixshunosligida ham salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, xotin-qizlar masalasi R.Stayts, A.Xaytlinger, M.Bakli, A.Xolt, R.Mak Nil kabi xorij tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan<sup>31</sup>. Xorij tadqiqotchilari sovet mamlakatidagi xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat borasidagi davlat siyosati masalasini ham tahlil etganlar. Jumladan, tadqiqotchi A.Xolt XX asrning 20-yillarida sovet va partiya arboblari tomonidan ilgari surilgan nazariya va siyosiy amaliyot namunalarini keltirgan<sup>32</sup>. Boshqa bir tadqiqotchi R.Mak Nil esa o‘z tadqiqotida sovet hokimiyatining ilk yillaridagi xotin-qizlar bo‘limlari faoliyatini tahlil qilgan. U

---

<sup>28</sup> Кадилов И.К. Очерки развития общеобразовательной школы Советского Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1974. – 185 с; Рахманов Н. Развитие педагогического образования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1976. – 176 б.; Шарипов Ш. Народное образование в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1977. – 78 с.

<sup>29</sup> Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: История изучения и современные проблемы. – Ташкент: Фан, 1991. – 133 с.; O‘sha muallif. «Хужум»га зарурат бормиди? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992-йил 11-сентябрь; O‘sha muallif. Ўзбекистон ижтимоий фанларида хотин-қизлар муаммоларининг ўрганилиши ва муаммолари. / Ўзбекистонда оила, давлат ва жамият қурилишида аёлларнинг роли ва гендер муаммолари. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 16-20.; O‘sha muallif. “Was there a need for an affect?” Literature and Art of Uzbekistan - September 11, 1999.; O‘sha muallif. The study and problems of women in the social sciences of Uzbekistan The role of women and gender issue in the construction of the family, state and the society in the construction of the family, state and the society in Uzbekistan. –Ташкент: Фан, 1999. – P.16-20.; Аминова Р.Х. Қайта қуриш шароитида Ўзбекистонда социал ривожланишнинг долзарб муаммолари. – Тошкент: Фан, 1991 – 148 б.

<sup>30</sup> Эргашходжаева Г.Э. Французская историография о проблемах эмансипации женщин Средней Азии в 20-годы (Литература 50-80-х годов). Автореф. дисс...канд . ист. наук. – Ташкент: 1996. – 22 с.; Нишонбоева Қ.В. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари. Тарих фанлари бўйича (PhD) дисс. – Тошкент, 1998. –166 б.; Холматова М. Оилавий муносабатлар маданиятини такомиллаштириш ва соғлом авлодни тарбиялаш муаммолари: Фалсафа. фан. докт...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 53 б.; Насруллаева Х. Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоийлашуви жараёнининг фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари номзоди дисс. автореферати. – Тошкент, 2000.– 26 с.; Маткаримова Г.А. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве. Автореф.дисс.д-ра юрид. наук. – Ташкент: 2002. – 41 с.; Ражабова Д.Н. Проблемы молодёжи и женщин в воззрениях джадидов Туркестана (конец XIX - начало XX вв): автореф.дис... к.и.н. – Ташкент: 2003. – 27 с.

<sup>31</sup> Stites R. The Women's Liberation Movement in Russia Feminism, Nihilism and Bolshevism 1860–1930 Princeton, N.J. 1978. – 512 p.; Heitlinger A. Marxism, Feminism and Sex Equality Yedlin T. (ed) Women in Eastern Europe and the Soviet Union. N Y. 1980. – P. 9-21.; Buckley M. Women and Ideology in the Soviet Union Ann Arbor, N Y.; L; Toronto, 1989. – 266 p; Holt A. Marksizm and Women's Oppression Bolshevik Theory and Practice in the 1920s'.

<sup>32</sup> Holt A. Marxism and Women's Oppression Bolshevik Theory and Practice in the 1920s' Yedlin T (ed) Women in Eastern Europe and the Soviet Union. N. Y, 1980. P. 87-104.



xotin-qizlar bo'limlari faoliyatiga sovet hukumati byurokrtiyasining bir ko'rinishi sifatida baho bergan<sup>33</sup>. AQShlik tarixchilar tomonidan sovet davlatidagi xotin-qizlar siyosati masalasiga ichki psixologik faktor sifatida baho berib, ayollarni asosan majburan inqilob g'oyalariga yo'naltirilishiga urg'u berilgan<sup>34</sup>.

Umuman, yuqorida ko'rib o'tilgan xorij tadqiqotlarida xotin-qizlar siyosati masalasi, ayollarning siyosiy faolligining ortib borishi jarayonlari umumittifoq miqyosida, yagona muammo sifatida tadqiq etilgan. Ayni tadqiqotlarda sovet davlati tarkibidagi alohida respublikalar, xususan, Turkiston ASSR, keyinchalik O'zbekiston SSRdagi xotin-qizlar ta'limining o'ziga xos jihatlariga alohida to'xtab o'tilmagan.

Dissertatsiyaning 2-bobi **“O'zbekiston hududlarida xalq ta'limi tizimining tashkil etilishi”** deb nomlangan. Bu bobda sovet hokimiyatining ilk yillarida Turkistonda sovet maktablarining tashkil etilish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, sovet tipidagi ta'lim muassasalari uchun xotin-qizlardan mutaxassis kadrlar tayyorlash va bu jarayondagi yutuq va muammolar tahlil etilgan.

Sovet davlatida ta'lim sohasida boshlangan islohotlar RSFSR tarkibida bo'lgan Turkiston ASSRga ham aloqador bo'lgan. Xususan, Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 14-maydagi alohida dekretiga muvofiq respublika hududida sovet maktablari tizimining tashkil etilishi ko'rsatib o'tildi. Dekretda turli ko'rinishdagi maktablar “o'qishni istagan kishilar uchun ularning yoshi, millati, qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'iy nazar ochiq, bepul ta'lim olishi mumkinligi” belgilandi<sup>35</sup>. Mavzuning ochib berilishi lozim bo'lgan davrga xos siyosiy vaziyat 1917-yil “Oktabr to'ntarilishi”dan so'ng paydo bo'lgan jarayonlar bilan bevosita bog'liq hisoblangani sababli tadqiqot davriga tegishli bo'lmas-da, ma'lumotlarning fundamental hujjatlar majmuasi dissertatsiyaning ilmiy asoslariga kiritildi. Shu o'rinda, Turkiston ASSRda ham yangi tipdagi sovet maktablarini tashkil etish yo'lga qo'yildi. Bunday maktablar soni asta-sekin ko'payib bordi. 1918-yilning o'rtalarida o'lkada ona tilida o'qitiladigan 330 ta maktab faoliyat ko'rsata boshladi. 1918-yilning yozida Toshkentning Eski shahar qismida o'zbek tilida dars o'tiladigan 13 ta sovet maktablari, Qo'qon shahrida 17 ta, rus tilida ta'lim beradigan 1 ta sovet maktablari, Andijonda esa 17 ta sovet maktablari (7 tasi rus tilida) tashkil etildi<sup>36</sup>.

Bolsheviklar hukumati qaror topganidan keyin, qisqa muddatlarda Turkiston ASSRda ham yangi sovet maktablari tobora ko'payib bordi. Yangi ko'rinishdagi umumta'lim maktablari tashkil etish, ayni paytda milliy (o'zbek, tojik, qozoq, turkman, qirg'iz va boshqa) tillarda ta'lim beriladigan maktablar tarmog'ini yaratishga katta e'tibor qaratildi. Sovetlar ushbu tadbirlar orqali ham mahalliy

---

<sup>33</sup> McNeal R.H. The Early Decrees of Zhenotdel Yedlin T (ed) Women Eastern Europe and the Soviet Union. N Y., 1980. – P. 75-86.

<sup>34</sup> Clements B.E. Working Class and Peasant Women in the Russian Revolution, 1917-1923 Signb 1982. Vol.82 32. – P. 215-235.

<sup>35</sup> Народное образование в Узбекистане. – Ташкент: Объединенное изд. “Правда Востока” и “Кизыл Узбекистан”, 1947. – С. 8.

<sup>36</sup> Муратходжаева А. Народное образование в Узбекской ССР за 25 лет (1924-1949). – Ташкент: Госиздат УзССР, 1949. – С. 7.

xalqlarni, birinchi navbatda, aholining oddiy qatlamlarini o'ziga og'dirib olishga harakat qildi.

Turkiston ASSR Maorif Xalq komissarligiga mavjud eski tartibdagi maktabxonalarini isloh qilib, ularni zamonaviy ko'rinishga moslash va ulardagi o'quv faoliyatini sovet maktablaridagi tartiblarga almashtirish masalasi asosiy vazifa etib belgilangan edi. Aynan ushbu masala yuzasidan Xalq maorifi komissiyasining Akademik bo'limi faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu bo'lim 1923–1924-o'quv yil uchun madrasalarni sovet maktablariga moslashtirish uchun maxsus o'quv dasturi ishlab chiqib, butun o'lka hududida amaliyotga joriy etildi<sup>37</sup>.

Turkiston ASSRda tashkil etilayotgan sovet maktablari soni tobora ortib bordi. 1918-yilning sentabr-oktabr oylarida Farg'ona viloyatining Skobelev uyezdida 6 ta rus va 6 ta o'zbek tilidagi maktablar tashkil etildi. Farg'ona viloyatida ishlab turgan sovet maktablari 1919–1920-o'quv yilining boshida 350, Sirdaryo viloyatida 839, Samarqand viloyatida 216 taga yetdi. Turkiston o'lkasida 1919-yilda 476 ta boshlang'ich maktab bo'lgan. Ayni maktablarda 29944 nafar o'quvchi o'qiganligi ma'lum bo'ladi. 1921-yilga kelib 1965 ta birinchi bosqich maktablarda 165645 nafar o'quvchi o'qidi. Bu o'quvchilarning 55,6 foizi tub yerli millat bolalari edi<sup>38</sup>.

Turkistonda sovet o'quv muassasalari bilan bir qatorda milliy ma'rifatparvarlar tomonidan jadid maktablarini tashkil etish harakatlari ham avj oldi. 1918-yil 9-aprelda taniqli ma'rifatparvar Munavvar qori Abdurashidxonov hovlisida milliy ilm dargohi tashkil qilingan. Bu ilm dargohining 9 kishidan iborat tashkiliy hay'ati ta'sis etildi. Bilim dargohi 1918-yilning 12-mayida Toshkentning eski shaharida tantanali ochildi. Uning 13 ta maktabi shu yilning 14-may kuni, eng oxirgisi esa 17-iyunda tarkib topdi. Ulardan 4 tasi ayollar maktabi edi<sup>39</sup>. Munavvar qori Abdurashidxonovning xotini muallimalik qilgan ushbu qizlar maktabida faoliyat milliy ta'lim tizimida va alohida dars jadvali asosida o'tilganligi e'tiborga molik edi.

O'zbekiston hududlarida savodsizlikni tugatish ishlari avj olgan davrda Farg'ona, Andijon, Samarqand, Toshkent hududlarida 1 va 2-bosqich maktablarida dars beruvchi o'qituvchilar tayyorlash uchun maxsus pedagogik kurslar tashkil etilgan<sup>40</sup>. Dastlab maktablarning barchasida qizlar uchun alohida sinflar tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Chunki, islom shariat qoidalari asosida tarbiyalangan qizlarning dastlab ko'chada yurishi, keyingi o'rinda o'g'il bolalar bilan o'qishi juda salbiy holatdek tuyulgan. Shu sababli 1924-yildan qizlar uchun alohida binoda maktablar va ayol o'qituvchilar dars berishi shakllantirildi.

O'zbekistonda xotin-qizlar faolligini sun'iy ravishda ta'minlash choralari ko'rildi. Butun Ittifoq bo'ylab 1921-yilda tashkil etilgan "Ayollar bo'limlari" faoliyati keskin amaliyot bilan bog'landi. 1926-yilda O'rta Osiyo miqyosida xotin-qizlar bo'limlari ishtirokida katta kengash o'tkazildi. Unda ayollar siyosiy faolligi

---

<sup>37</sup> O'zbekiston Milliy arxivi, R.34-fond, 1-ro'yxat, 1758-ish, 89-varaq.

<sup>38</sup> Королёв Ф.Ф., Корнейчик Т.Д., Равкин З.И. Очерки по истории советской школы и педагогики (1921–1931). – Москва: Изд. Академии педагогических наук РСФСР, 1961. – С. 47.

<sup>39</sup> O'zbekiston Milliy arxivi, R.34-fond, 1-ro'yxat, 1758-ish, 164-varaq.

<sup>40</sup> O'zbekiston Milliy arxivi, R.34-fond, 1-ro'yxat, 2727-ish, 10–11-varaqlar.

masalasi dagi harakatni jadallashtirish, uni majburiy o'tkazish vazifasi yuklandi. "Ayollarni ozodlikka chiqarish"ning eng muhim vositasi sifatida ularning paranjisiga qarshi kurash deb topildi. Shu tariqa, sovetlarning Sharq ayollarini "ozod" qilish, ularning siyosiy faolligini oshirish hamda yangi hayot qurilishiga jalb etish borasidagi "Hujum" kompaniyasi boshlab yuborildi. Milliy qarashlarda o'z faoliyatini oqlash jarayonida harakatning yana bir maqsadi ko'p xotinlilik, balog'atga yetmagan qizlarni turmushga berish va qalin pulini yo'q qilish edi. Biroq, sovetlar tomonidan o'zlari shiddatli tus bergan ushbu "Hujum" harakatini asriy an'analarni hisobga olmagan holda qarorlar, ko'rsatmalar asosida olib borildi, ko'p hollarda zo'rlik ishlatildi.

"Hujum" harakati 1927-yilda o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. 1927-yilning bahorida 100 ming nafar ayol paraji tashladi, 5 ming nafar ayol savodsizlikni tugatish kurslariga jalb etildi. Shuningdek, 5202 nafar ayol viloyat, shahar, tuman sudlariga maslahatchi qilib saylandi<sup>41</sup>. Ammo sovetlarning bu masalada amalga oshirgan zo'ravonlik, shoshma-shosharlik siyosati minglab ayollarning begunoh qurbon bo'lishlariga olib keldi. "Hujum" kompaniyasi yillarida (1927–1928) O'zbekistonning 2,5 ming nafardan ortiq faol xotin-qizlari, qishloq, tuman kengashlari, ayollar klublari a'zolari va kutubxonalar mudirlari o'ldirilgan<sup>42</sup>. Birgina 1928-yilda ayollarga qarshi noqonuniy ish tutgan 671 kishi qamoqqa olinib, har xil muddatga hukm qilingan, 7 nafari otib tashlangan<sup>43</sup>.

Savodsizlikni tugatish maktablarini tamomlagan ko'pgina xotin-qizlar, aynan ayollar uchun tashkil etilayotgan maktablarda o'qituvchilik qila boshladilar. Ayni paytda, savodini chiqargan ayollar umumta'lim maktablari bilan bir qatorda, xotin-qizlar uchun kasbga yo'naltirilgan kurslarda, o'qituvchilar tayyorlaydigan pedagogik kurslarda ham faoliyat ko'rsata boshladilar. Ushbu yillarda Respublikaning ancha ilg'or hududlarida o'g'il va qiz bolalar birgalikda o'qitiladigan dastlabki milliy maktablar ham tashkil etila boshladi. 1926–1927-o'quv yilida Farg'ona vodiysida o'g'il va qiz bolalar birgalikda o'qitilayotgan 56 ta o'zbek maktablari faoliyat ko'rsata boshlagan. Ularda o'qiyotgan 5000 nafar o'quvchining 1438 nafari qizlar edi<sup>44</sup>.

O'zbekistonda boshlang'ich maktablar bilan birgalikda barcha hududlarda tashkil etilgan xotin-qizlar savodsizligini tugatish kurslari ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1923–1924-o'quv yilida Farg'ona vodiysida 23 ta kursda 500 nafar ayollar savod o'rgangan bo'lsa, bu miqdor yildan yilga ortib bordi. Chunonchi, 1924–1925-o'quv yilida 51 ta kurs va uning 1023 nafar bitiruvchilari, 1925–1926-o'quv yili yakunida esa 82 ta kursning 2700 nafar bitiruvchi ayollar savod o'rganib, jamiyatning ishchilar qatoriga qo'shildi<sup>45</sup>.

---

<sup>41</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б. 378.

<sup>42</sup> Палванова Б.П. Эмансипация мусулманки. Опыт раскрепощения женщины Советского Востока. – Москва: Наука, 1982. – С. 197.

<sup>43</sup> К. Цеткин. Ликвидация неграмотности в женском клубе. // Правда Востока, 1928 г. 21 декабря. – 1 с.

<sup>44</sup> Кадыров И. Успехи народного образования в Узбекской ССР за 40 лет. – Ташкент: Учпедгиз УзССР, 1957. – С. 30.

<sup>45</sup> Эргашева М. Ўзбекистон тарихида аёлларнинг ижтимоий ҳаётини тубдан ўзгартириш масалалари. "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги илмий конференция материаллари. – Тошкент, 2020. – Б. 40.

Ayni savodsizlikni tugatish masalasida ayollar maktablarida mahalliy o'qituvchi kadrlarni tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. O'qituvchilar tayyorlov kurslarida 1925-yilda Farg'ona, Toshkent, Samarqand okruglarida 1256 nafar kurs tinglovchilaridan 31 foizini ayollar tashkil etdi<sup>46</sup>.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston xalq ta'limi tizimining xotin-qizlar hayotiga ta'siri”** deb nomlangan 3-bobida xotin-qizlarning sovet ta'lim tizimiga jalb etilish jarayonlari, ta'lim muassasalari uchun ayollardan mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi yutuq va muammolar yoritilgan.

O'zbekiston xalq ta'limi faoliyati bugungi kundagi holatiga yetib kelishining uzoq yillik tajribasi va undagi gender tenglik masalasi o'ziga xos tarixiy jarayonlarni boshdan kechirgan. Xalq ta'limiga ayollarning tortilishi masalasi ortida katta siyosiy jarayon mavjud bo'lib, uning ildizi butun Turkiston hududi aholisini “Madaniy inqilob” jarayoniga jalb etish chora-tadbirlari bilan izohlanadi.

Ta'lim jarayoniga ayollarning jalb etilishi milliy mentalitetga doir muammolarni yuzaga keltirgan. Biroq, V.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hukumati qanday qilib bo'lmasin o'z maqsadlarini amalga oshirishga harakat qildilar. Jadidchilikning yangi usul maktablari faoliyati butun o'lkada keng tarqalgan bo'lsa-da, xotin-qizlar masalasida sovet maktablaridagi kabi moddiy asosga, o'quv qo'llanma va keng tarqalgan targ'ibot materiallariga ega emas edi.

1919-yil Turkiston ASSR Kompartiyasi Markaziy Komiteti huzurida ishchi va dehqon xotin-qizlar bo'limlari tuzildi<sup>47</sup>. Bu jarayon asrlar davomida uy yumushlari va bola tarbiyasi bilan shug'ullanib kelgan ayollarni “madaniy qullik jarayonidan ozod qilish va ularning ijod va ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish” sifatida talqin qilindi. Ishchi va dehqon orasida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish uchun xotin-qizlar bo'limlari yonida alohida partiyaviy-tashkiliy komissiyalar ham tuzildi. Ushbu bo'limlarining asosiy vazifasi xotin-qizlar o'rtasida ommaviy-siyosiy ishlar olib borib, sovet tuzumi va kommunistik partiya mafkurasini oddiy xalq orasida keng yoyish va targ'ib etishdan iborat edi. Bu bo'limlar bevosita hududlarni bo'lishib, xotin-qizlar uchun turli (o'qish-yozish, tikuvchilik, pazandachilik, kitobxonlik va boshqa) to'garaklar tashkil qildilar. Hamda, xotin-qizlarga bepul siyosiy adabiyotlar va turli badiiy kitoblar tarqatdilar<sup>48</sup>.

Savodsizlikni tugatish deb nomlangan siyosatning asl maqsadi sifatida namoyon bo'lgan jarayonda 1921–1922-yillarda sovet tashkilotlari xizmatchilari orasida o'zbek ayol ishchilari paydo bo'ldi. 1925–1926-yillarda respublikada mashg'ulotlar o'zbek tilida o'tkaziladigan dastlabki ishchi fakultetlari (Rabfak) ochildi, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda mutaxassislar tayyorlash uchun Samarqand, Toshkent, Farg'onada kechki ishchi universitetlari tashkil etildi. Ularda erkaklar bilan bir qatorda o'zbek va boshqa tub joy millat xotin-qizlari ham o'qiy boshladilar<sup>49</sup>.

<sup>46</sup> Собиров О.С. Хоразм воҳасида маориф ва мактаб. //“Совет мактаби”, 1977-йил №9. – Б. 93-94.

<sup>47</sup> Хайдарова С. Октябрь ва маҳаллий хотин-қиз ўқитувчилар малакасини ошириш // “Совет мактаби”, 1978 йил № 9. – Б. 12.

<sup>48</sup> Ўзбекистон ССРда 30 йил ичида халқ маорифи (1924-1954). И.К. Қодировнинг умумий таҳрири остида – Тошкент: ЎзССР Давлат ўқув-педагогика нашриёти, 1954. – Б. 82.

<sup>49</sup> Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. Улуғ Октябр Социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917–1937 йиллар). Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 444.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida xotin-qizlar klublari ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday klublarning birinchisi 1924-yilda Toshkentning Eski shahar qismida ochilgan edi. Xotin-qizlar klublari huzurida ishchi ayollarning bolalari uchun yaslilari, bo'lim a'zolari va ularning farzandlari uchun vrach maslahatxonalari, savodsizlikni tugatish maktablari, yuridik kabinetlar, xotin-qizlarga ishlab chiqarish kvalifikatsiyasini beradigan to'garaklar tashkil etildi<sup>50</sup>. Tan olish kerakki, bu kabi xotin-qizlar klublari mahalliy aholi tomonidan ham ma'qullandi. Ular respublikaning boshqa hududlarida ham tashkil etila boshladi. Chunki, bunday klublar faqat xotin-qizlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unga ayollargina qatnashar edi. Ularga saboq va hunar o'rgatadigan o'qituvchi-murabbiylar ham ayollardan edi. Bu esa mahalliy aholining urf-odat va an'analariga zid kelmas edi.

1924–1925-yillarda O'zbekiston SSRda 100 ga yaqin xotin-qizlarning maxsus o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatgan. Ularda “Qo'shchi” uyushmasiga a'zo bo'lgan minglab xotin-qizlar ta'lim oldilar. 1927–1928-yillarda xotin-qizlar seksiyalarining soni respublikada 216 taga yetgan edi<sup>51</sup>. Ularning muhim bir jihati shunda ediki, qishloqlarning erkak aholisi o'rtasida savodsizlikni tugatish ishlari, asosan, qish mavsumida olib borilgan bo'lsa, xotin-qizlar maktablari yilning hamma mavsumida faoliyat ko'rsatgan.

Mahalliy xotin-qizlarni maorif maskanlariga jalb qilish oson kechmadi. Mavjud maktablarda va hunar-texnika o'quv yurtlarida mahalliy millatlarning qizlari o'quvchilarning faqat 7–8 foizini tashkil qilar edi. Qizlarni maktablarga tortishda shoshma-shosharlik, urf-odatlar va an'analarni hisobga olmaslik bir qator murakkabliklarni yuzaga keltirdi. Xotin-qizlar uchun alohida maktablar, ayollardan o'qituvchi pedagoglar bo'lishi kerak edi. Bu muammoni hal qilish uchun sovet hukumati tomonidan respublikaning bir qator shaharlarida xotin-qizlar uchun maxsus pedagogika texnikumlari ochildi<sup>52</sup>.

Hududda mahalliy muallima kadrlar yetishmasligi sababli tatar, boshqird, tojik millatiga mansub ayol o'qituvchilarning safarbar etilishi yo'lga qo'yildi. 1919-yil 5-dekabr kuni Xalq ta'limi Ijroiya Komiteti buyrug'i bilan Toifa Aktuganova, 1920-yil 3-sentabrda Bibi-Oysha Axmerova, Maryam Yusupova, 1923-yil Shoxida Boymurodova, 1923-yil Bibimaryam Baxtiyorovna kabi yuzlab tatar ayollari mamlakat hududining turli viloyatlariga xotin-qizlar maktablarida muallimalik va “Ayollar bo'limi”ga rahbarlik lavozimlariga jalb etilgan<sup>53</sup>.

O'zbekiston partiya va sovet tashkilotlari xotin-qizlar uchun bir qator maxsus maktablar va ayollardan rahbar kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan ko'plab kurslar tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbek xotin-qizlari va boshqa mahalliy millat vakillaridan maorif xodimlari tayyorlash birinchi marta Toshkent va Samarqandda xotin-qizlar maxsus bilim yurtlarida yo'lga qo'yildi<sup>54</sup>.

<sup>50</sup> Калинин М.И. Образование в Узбекистане. // Правда Востока, 1924 г. 12 мая. – 2-с.

<sup>51</sup> Абрамов М. О работе союза “Кушчи” среди женщин // Общественные науки в Узбекистане, 1965 г. №9. – С. 34.

<sup>52</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар Жўраев М., Нуруллин Р., Камолов С., ва бошқалар. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 273.

<sup>53</sup> Насретдинова Д. Туркистон маданий ҳаётида татар аёллари. – Тошкент: “Yangi nashr”, 2015. – Б. 28-29.

<sup>54</sup> Кодиров И.К. Ўзбекистон ССРда 30 йил ичида халқ маорифи (1924–1954).– Тошкент: ЎзССР Давлат ўқув-педагогика нашриёти, 1954. – Б. 84.

1927-yilga kelib, eski tartibdagi maktablarning faoliyatiga chek qo'yildi. Barcha hududlarda "yangi maktab"lar ochila boshladi. Maktablarni kadr va mutaxassislar bilan ta'minlash bir oz muammolarni tug'dirsa-da, sovet hukumati buning ham uddasidan chiqish yo'llarini topdi. Yangi usuldagi maktablar uchun markaziy ishtirokchilar kurslarini tashkil etib, uni tamomlaganlar tashkiliy-ishtirokchilik ishlarini olib borish uchun o'lkaning barcha hududlariga yuborilar edi<sup>55</sup>.

Shunday markaziy-ishtirokchilar kurslari Farg'ona vodiysida ham o'z faoliyatini olib borgan. Markaziy-ishtirokchilar kurslari Farg'ona viloyati hududida joylashgan maktablar o'quvchilariga ko'proq rus tilida darslar berish rejalashtirilgan. Hamda, millatidan qat'iy nazar tashkiliy-ishtirokchilar kurslariga qabul qilinganlar. Masalan, 1927-yilda yuqori sinflarga dars beruvchi o'qituvchilar tayyorlash kurslari tashkil etilib, o'qituvchilar uchun 7 ta fan bo'yicha mashg'ulotlar o'tilishi belgilangan.

Ko'rib o'tilayotgan yillarda mahalliy xotin-qizlarini o'lkaning sanoat ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilishga alohida e'tibor berildi. Bu borada partiya, sovet idoralari va jamoat tashkilotlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular mahalliy xalqlarning azaliy urf-odatlarini va an'analarini "o'tmish sarqiti", "xurofot" deb e'lon qildilar. O'zbekistonda "Hujum" harakatini avj oldirish bilan bir vaqtda xotin-qizlarni sanoat va qishloq xo'jaligidagi ishlarga safarbar qilish ham ommalashdi. Shu o'rinda ayollar to'qimachilik, pillakashlik, poligrafiya, tikuvchilik, oziq-ovqat sanoati tarmoqlariga ko'proq jalb etilib, bu kabi korxonalarda xotin-qizlarning salmog'i barcha ishchilarning 35–62 foizini tashkil qila boshladi<sup>56</sup>.

Xotin-qizlarni sanoat korxonalariga safarbar etish bilan bir paytda ular mehnatidan qishloq xo'jaligida foydalanish ham tobora ortib bordi. Bu yillarda O'zbekistonda tobora ko'p yetishtirila boshlayotgan paxtachilik tarmog'i ko'p mehnat talab qiladigan ekin turi bo'lib, unda xotin-qizlar asosiy ishchi kuchini tashkil qila boshladi. Shuningdek, bu davrda ayollardan traktorlar tayyorlash ham siyosiy kompaniyaga aylantirilgan edi. 1936-yilning o'zida O'zbekistonda xotin-qizlardan 1500 nafar traktorchi tayyorlandi, bolalar bog'chalari va yaslilarida ishlash uchun 3000 nafar mutaxassis yetishib chiqdi. Shuningdek, bir necha yuz kishi respublika yuridik kurslarini tamomlab, O'zbekiston SSRning sud va prokuratura organlarida ishlay boshladi<sup>57</sup>.

1929–1939-o'quv yilida Respublika maktablarida 7464 nafar o'qituvchilar bo'lib, ularning 3600 dan ortig'i qishloq maktablarida faoliyat ko'rsatar edi. O'qituvchilarning 1642 nafarini ayollar tashkil qilar, ularning yarmidan ortig'i mahalliy millat xotin-qizlaridan iborat edi<sup>58</sup>.

---

<sup>55</sup> O'zbekiston Milliy arxivi, -P-94-fond, 5-ro'yhat, 238-ish, 115-varaq.

<sup>56</sup> Кадыров И. Успехи народного образования в Узбекской ССР за 40 лет. – Ташкент: Учпедгиз УзССР, 1957. – С. 32.

<sup>57</sup> ЎзЛКСМ Марказий Комитети III пленумининг резолюцияси. 1936-йил декабрь. – Тошкент: ЎзЛКСМ нашри, 1937. – Б. 3-4.

<sup>58</sup> O'zbekiston Milliy arxivi, R.94-fond, 1-ro'yhat, 472-ish, 25–26-varaqlar.

Xotin-qizlar o'rtasida madaniy-oqartuv ishlarini kuchaytirilishi natijasida 1936-yilda o'zbek xotin-qizlaridan 9000 kishi rahbarlik ishlarida faoliyat olib bora boshladi. Hamda, 600 nafar ayollar siyosiy o'qishni muvaffaqiyat bilan tamomlab, turli muassasa va tashkilotlarga yuborildilar. Qizlardan 6389 kishi komsomol safiga kirdi. Ayni shu yili turli yoshdagi xotin-qizlardan 194 ming kishi savodsizlikni tugatish maktablariga tortildi va ular o'z ona tillarida o'qib, savod chiqardilar<sup>59</sup>.

Umuman, 1930–1935-yillardagi xalq ta'limi sohasining umumiy muammolari sirasiga savodsizlikni tugatishda pedagog kadrlar tayyorlash masalasi va bu sohaga turli yoshdagi xotin-qizlarni keng jalb etish bo'yicha hududda mavjud ayollar bo'limlarining ham faoliyati keng targ'ibotga asoslanganini ko'rish mumkin. Aynan, shu davrda hukumat tomonidan hududda ayollar ma'lumotli, erkaklar bilan bir xil huquqqa ega bo'lishi masalasi kun tartibiga turgan. Bu esa ayollarning jamiyatdagi faollik holatini ortishiga intilishning tub mohiyatini anglab yetishida muhim ahamiyatga ega bolgan. Zero, sovet hukumati ayollar va erkaklar haq-huquqini tenglashtirish deganda, ularning siyosiy faolligini oshirishni emas, balki xotin-qizlarni sanoat va qishloq xo'jaligidagi ishlarga keng safarbar qilishni ko'zda tutgan edi.

Savodsizlikni tugatishning ikkinchi besh yillik (1933–1937) davrida O'zbekistonda xotin-qizlar ta'limi sohasida katta yutuqlarga erishildi. Ammo, respublikadagi maktablarda mahalliy qizlar hali ancha kamchilikni tashkil qilgan. Bunga sabab mahalliy aholi orasida hanuz eski turmush tarzi saqlanib qolganligi edi. Shuningdek, aholining o'z qiz farzandlarini ko'chaga chiqarmaslik yoki o'g'il bolalar bilan birga o'qitiladigan maktablarga yubormaslik ko'rinishlari davom etmoqda edi. Oqibatda, omma orasida madaniy-oqartuv va tushuntiruv-tarbiya ishlarini kuchaytirish, xotin-qizlarga nisbatan eski xurofiy urf-odatlarini saqlab qolishga intilayotgan kishilarga choralar ko'rish kabi harakatlar yanada avj oldirildi.

## XULOSA

XX asrning 20–30-yillarida O'zbekistonda xalq ta'limi tizimining ahvoli va unda xotin-qizlarning ishtiroki masalasini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ldi:

1. Ta'lim, maorif, madaniyat o'ziga xos ko'rinishda aks etgan Turkiston o'lkasida XX asrning 20–30-yillarida yangi sovet maorifi shakllanish davriga asos solindi. Biroq bu jarayon har bir davr uchun turli mashaqqatlar evaziga qo'lga kiritilgan. Ushbu davrni SSSRning Turkiston o'lkasiga ma'naviy hujum davri deb baholansa mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, maorif sohasidagi tub islohot asrlar davomida diniy ta'lim bilan tarbiyalangan, musulmonlik arkonlari va milliy an'analar asosida ta'lim-tarbiya ko'rgan Turkiston aholisi ongida ziddiyatli tushunchalar va mafkuraviy tafovutlarni keltirib chiqardi.

---

<sup>59</sup> Тожиева Ж.М., Абдуллаева Ф. Ўзбекистон ССРда хотин-қизлар маорифи масалалари. / Ўзбекистон ССРда 50 йил ичида халқ маорифи (1924–1954). И.Қ. Қодировнинг умумий тахрири остида. – Тошкент: ЎзССР давлат ўқув-педагогика нашриёти, 1954. – Б. 85.

2. O‘zbekistonda savodsizlikka barham berish maqsadida sovet hukumati tomonidan yangi maktablar tashkil etildi. Lekin bu maktablar xalqning urf-odatlarini va uning milliy an‘analaridan ancha yiroq edi. Sovet hukumati manfaatlariga bo‘ysundirilgan maktablar, asosan, Farg‘ona vodiysi, Samarqand va Toshkent viloyatlari hududlarida barpo etilgan. Ushbu hududlarda milliy ozodlik harakatlari avj olgani inobatga olinib, ta‘limni ommalashtirish orqali aholining bandligi ta‘minlangan edi. Lekin O‘zbekiston hududlarida an‘anaviy milliy maktablar ham o‘z faoliyatini to‘xtatib qo‘ymadi. Jadid namoyandalari tomonidan o‘lkaning turli burchaklarida tashkil etilgan yangi usul maktablari sovet maktablariga muqobil tarzda faoliyat ko‘rsatishda davom etdi.

3. Vatan tarixining eng ziddiyatli davri bo‘lgan sovet hokimiyati yillaridagi siyosiy jarayonlar respublika hayotining hech bir sohasini chetlab o‘tmagan. Sovet hokimiyati yillarida ta‘lim sohasining tubdan isloh qilinishi bevosita hukumatning manfaatlarini va maqsadlariga bo‘ysundirildi. Hatto, ushbu sovet hokimiyati ta‘limini o‘zbek jadalari va ma‘rifatparvarlari tomonidan milliy xususiyatlarga mos tarzda o‘qitishga urinishlar ham hukmron mafkura tomonidan “millatchilik” deb qarshi olindi. Ularning faoliyati turli vositalar bilan taqiqlandi. Sovet hokimiyati Turkiston o‘lkasida ancha mustahkamlanganidan keyin milliy qadriyatlar uchun kurashgan jadal namoyandalari, milliy ziyolilar mustabid tuzum tomonidan qatag‘on qilindi.

4. 1924-yilda O‘rta Osiyodagi milliy-hududiy chegaralashi oqibatida bir nechta milliy respublikalar, shu jumladan, O‘zbekiston SSR ham tashkil etildi. O‘zbekiston SSRda ta‘lim sohasini isloh qilish davom etdi. Biroq bu borada jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yildi. Jumladan, respublikaning chekka hududlarida maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o‘qishga tortilmadi. Ayniqsa, tub joy aholi qizlarining maktablarga jalb qilinishi ko‘rsatkichlari darajasi juda past edi. Mahalliy millat bolalari orasida maktabni tashlab ketish hollari ham ko‘p kuzatilar edi.

5. Respublikada tashkil etilayotgan ko‘pgina maktablarda muallimlarning bilim darajasi yetarli bo‘lmaganligi tufayli o‘qish saviyasi talabga javob bermas edi. Shuningdek, maktablar soni muttasil ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularning o‘qituvchi kadrlar ta‘minoti, o‘quv moddiy bazasi nochor ahvolda qolayotgan edi. Maktablarni mutaxassis kadrlar bilan ta‘minlash darajasi juda past darajada bo‘lib, ayniqsa milliy tillarda dars o‘tadigan ayol o‘qituvchilar juda kam edi.

6. Milliy tillarda o‘qitiladigan maktablarda dars o‘tuvchi o‘qituvchilar, xususan, ayol muallimlar juda ozligini e‘tiborga olingan. Hamda sovet hukumati O‘zbekistonning bir qancha shaharlarida xotin-qizlar bilim yurtlari va pedagogika texnikumlarini tashkil etgan. Ularda mahalliy xotin-qizlar tahsil olishi yo‘lga qo‘yilgan. Bu kabi bilim yurtlari asta-sekin ayol o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojni to‘ldirib bordi. Biroq, kadrlar tayyorlaydigan o‘quv yurtlariga dastlabki davrlarda xotin-qizlarning kirishi jalb etilishi past dapajada bo‘lgan. Oqibatda, ularni o‘rta maxsus va oliy ta‘limga tortish bo‘yicha ham sovet hukumati katta targ‘ibot ishlarini olib borishiga to‘g‘ri kelgan.

7. Sovet hukumati qonunlarida ayollar va erkaklarni teng huquqli deb e‘lon qilish bilan jamiyatda xotin-qizlarning masalasi hal qilindi, ijtimoiy muammolar



tugatildi, deb hisoblangan. Hukumat qonunlarida ayollar va erkaklar teng huquqlarning ta'minlanishi, xotin-qizlarga erkaklar qatori korxonalar va tashkilotlarda ishlash imkoniyatining berilishi deb qaraldi. Vaholanki, ko'p millatli sovet mamlakatida ayollar masalasiga yondoshishda asrlar davomida amal qilib kelingan milliy va diniy qadriyatlar, urf-odat va an'analar umuman e'tiborga olinmadi, ko'p hollarda bu qadriyatlar sovet tuzumi tomonidan oyoqosti qilindi.

8. Mavjud arab tili grammatikasi asosidagi ta'limni "eskilik sarqiti" deb siqib chiqarish borasida 1929-yil lotin alifbosiga o'tish amalga oshirilgan. Lekin, ko'p o'tmasdan lotin alifbosi ham bekor qilinib, kirill alifbosi joriy etiladi. Asossiz ravishda amalga oshirilgan bu alifbo almashtirishlar katta moddiy harajatlarni talab etish bilan bir vaqtda, minglab mahalliy aholi vakillarining savodsiz bo'lib qolishiga sabab bo'ldi.

9. XX asrning 20–30-yillarida O'zbekiston hududlarida xotin-qizlar o'rtasidagi savodsizlikni tugatish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Biroq, savodsizlikni tugatish yuzasidan belgilangan rejalar amalda bajarilmadi. Butun mamlakatda bo'lgani kabi, O'zbekiston SSRda ham savodsizlikni tugatish yuzasidan bir necha bor muddatlar belgilangan. Ammo, respublikada katta yoshdagi aholi, jumladan, mahalliy xotin-qizlar o'rtasida ham savodsizlikni tugatish ishlari XX asrning 30-yillari oxirlarida ham yakunlanmagan edi. Partiya-sovet hujjatlarida ushbu davrda sovetlar mamlakatida katta yoshdagilar o'rtasida savodsizlik tugatildi, deya ta'kidlangan. Amalda esa milliy respublikalarda savodsiz aholi vakillari hamon ko'pchilikni tashkil qilardi.

Tadqiqot ilmiy xulosalari asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari, qo'shma hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishgina Yangi O'zbekistonda xalq ta'limi tizimini zamon talablari darajasida rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu jarayonda xotin-qizlardan yuqori malakali, raqobatbardosh o'qituvchi-kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda jamiyat hayotida, xususan, xalq ta'limi tizimida xotin-qizlar ishtiroki va faolligini yanada oshirish uchun davlat miqyosida maxsus dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim.

2. Davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlari (mahalliy hokimiyat organlari, xotin-qizlar tashkilotlari, yoshlar ittifoqi, o'zini-o'zi boshqarish organlari) o'rtasida ta'lim sohasidagi muammolarni birgalikda hal qilish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

3. Xalq ta'limi sohasining mamlakat kelajagida egallagan ahamiyatini e'tiborga olgan holda, o'qituvchi kadrlarni, ayniqsa, ayol pedagoglarni moddiy qo'llab-quvvatlash mexanizmini ishlab chiqish, o'qituvchilarni qo'shimcha rag'batlantirish chora-tadbirlarini belgilash zarur.

4. O'zbekistonning sovet hokimiyati yillarida muhim o'rin tutgan "sovet maktablari" tashkil bo'lishining turli bosqichlarini yorituvchi, Respublika xalq maorifi rivojlanishining ziddiyatli jihatlarini tahlil etishga yo'naltirilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning tashkil etilishi ushbu keng qamrovli mavzuni yangi tahliliy materiallar bilan to'ldirishda muhim o'rin tutadi.

5. Umumta'lim maktablarida madaniy muzey burchaklari tashkil etish orqali bugungi kun ta'lim jarayonining yutuqlarini, milliy o'zlik va mustaqillikning mafkuraviy qarashlarini o'quvchilar ongiga singdirish lozim.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 ПРИ  
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**ЭРГАШЕВА МУХАЙЁХОН ГАНИЖОНОВНА**

**УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН В СИСТЕМЕ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА В 20–30-е ГОДЫ XX ВЕКА**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Фергана – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/Tar739.**

Диссертация выполнена в Андижанском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:**

**Расулов Бахтиёр Махмуджонович**  
доктор исторических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Абдуллаев Музробжон Гуломович**  
доктор исторических наук, доцент

**Хайдаров Иззатилло Махмутаалиевич**  
доктор исторических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Наманганский государственный университет**

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 г. в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 при Ферганском государственном университете (Адрес: город Фергана, улица Мураббийлар, Ферганский государственный университет, Факультет истории, 2-этаж, зал совещаний. Тел.: (99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; e-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz), Ферганский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_). (Адрес: 150100, город Фергана, улица Мураббийлар, дом №19. Здание ИРЦ). Тел.: (99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).

**Б.А.Усмонов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

**Н.О.Алимова**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам, доцент

**М.Г.Абдуллаев**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В условиях процессов мировой глобализации значительно возросли значение и роль женщины в обществе, внимание к социальному статусу, правам и свободам женщин. Все более необходимым становится укрепление позиции и положения женщин в управлении государством и обществом, повышение их социальной активности, создание условий для реализации их способностей и возможностей в различных областях. На данный момент становится все более важным изучение и системное решение проблем женщин, особенно расширение их возможностей для получения образования.

Такие вопросы, как защита прав женщин и обеспечение гендерного равенства, возможности получения ими образования, обеспечение их жильем глубоко изучаются в ряде ведущих высших учебных заведений и научно-исследовательских институтов мира. В частности, Центр женщин и гендерных исследований и Институт женщин и гендерных исследований Колумбийского университета в США, Европейский институт гендерного равенства, Центр международных гендерных исследований Оксфордского университета в Великобритании, а также Центр гендерных исследований Института этнологии и антропологии Российской Академии наук, корейские институты развития женщин являются ведущими институтами в изучении вопросов, касающихся женщин и гендерного равенства. Сегодня признание защиты интересов женщин одним из приоритетных направлений в политике многих стран порождает необходимость проведения обширных исследований в этой области.

В годы независимости повышение и поддержка активности женщин в Узбекистане, улучшение и защита условий их труда и учебы стали одним из важных направлений государственной политики. В частности, широкомасштабные реформы, реализуемые в Республике Узбекистан в этом направлении, помогают женщинам страны получить образование и профессиональные навыки, найти достойную работу, обрести жилье, а также еще более улучшить свой уровень жизни. Как отметил Президент Ш.М.Мирзиёев: «Наш народ всегда проявлял высокое уважение к святой матери и женщинам. Уважение к женщине – это прежде всего выражение уважения к семье и будущему общества. С этой точки зрения, безусловно, есть глубокий смысл в мудрых словах о том, что культурный уровень любого общества на земле определяется его отношением к женщинам».<sup>60</sup>

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-87 «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин» от 7 марта 2022 года, № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030» от 11 сентября 2023 года, № УП-208 «О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности Комитета семьи и женщин» от 21 декабря

---

<sup>60</sup> Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на втором пленарном заседании Сената Олий Мажлиса 22.06.2019.

2023 года, Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан №145 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения и решения проблем женщин» от 31 марта 2022 года и других нормативных правовых актах, относящихся к данной сфере.

